



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

**Maqsudov Bunyod
Abdusamat o'g'li**

*PhD, Bank ishi kafedrası katta o'qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,*

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kredit portfeli sifatini boshqarish markaziy o'rin tutadi, chunki aynan muammoli kreditlar hajmining oshishi bank likvidligi, to'lov qobiliyati va kapital yetarliligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, muammoli kredit tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va uni tasniflash mezonlarini aniqlashtirish zamonaviy bank nazariyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro amaliyotda ushbu tushunchaga yagona yondashuv mavjud emasligi, aksincha, har bir muassasa va tartibga soluvchi organning o'ziga xos mezonlarni qo'llashi, kredit portfeli sifatini xalqaro miqyosda qiyoslashni murakkablashtiradi.

Xalqaro Valyuta Fondi muammoli kreditlarga nisbatan aniq sonli mezon taklif etmaydi, biroq amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan yondashuv Bazél qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra kredit 90 kundan ortiq muddatda to'lanmasa yoki foiz hisoblanishi to'xtatilgan bo'lsa, muammoli deb tan olinadi; bunday kreditlar bo'yicha kamida 20 foiz xaxira ajratilishi va 150 foizgacha risk vazni qo'llanilishi tavsiya etiladi [1]. Amerikalik iqtisodchi P. Rose muammoli kreditni belgilangan shartnoma muddatida to'liq qaytarilmagan qarx sifatida ta'riflasa [2], O. Gasanov muammoli kreditlarni to'lov muddati, ta'minot sifati va qarzdorning moliyaviy holatiga qarab beshta toifaga — standart yaqin, nazorat ostidagi, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarga — ajratishni taklif qiladi [3]. Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ularning barchasi kreditning to'lanish muddati va qarzdorning moliyaviy holatini asosiy mezon sifatida belgilaydi, farqi esa sifat bosqichlarining sonida va ularga nisbatan qo'llaniladigan miqdoriy chegaralarda namoyon bo'ladi.

Milliy amaliyotda ushbu nazariy yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi 2696-son yo'riqnomasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra aktivlar standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz toifalarga tasniflanadi hamda ular bo'yicha mos ravishda 1, 10, 25, 50 va 100 foizlik xaxira ajratmalari shakllantiriladi [4]. Bundan tashqari, «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar balansdan chiqarilgandan keyin ham kamida besh yil mobaynida balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinishi, ushbu muddat davomida qarx to'lanmagan taqdirda esa bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan qaror asosida yakuniy hisobdan chiqarilishi belgilangan [4]. Bu, bir tomondan, bankning kredit yo'qotishlarini

konservativ baholashini, ikkinchi tomondan esa qarzdorga nisbatan uzoq muddatli talab huquqini saqlab qolishni ta'minlaydi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2696-son yo'riqnomasiga ko'ra aktivlar tasnifi va zaxira ajratmalari stavkalari [4].

Aktivlar toifasi	Zaxira ajratmasi stavkasi, %
Standart	1
Substandart	10
Qoniqarsiz	25
Shubhali	50
Umidsiz	100

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlarning kelib chiqishini tushunish uchun ularni nafaqat statik holatda (joriy muddati o'tgan qarzdorlik sifatida), balki dinamik jarayon sifatida — standart kreditning bosqichma-bosqich sifat pasayishi natijasi sifatida — ko'rib chiqish zarur. Xususan, F. Mishkin ta'kidlaganidek, bank o'z kredit portfelini yetarlicha diversifikatsiya qilmasa, «barcha tuxumlarni bitta savatga solish» xavfiga duch keladi, bu esa yagona tarmoq yoki mijozlar guruhidagi salbiy shoklarning butun portfelga tarqalishiga olib keladi [5]. Shu bilan birga, N.E. Sokolinskaya kredit risklarini monitoring qilish tizimi va axborot infratuzilmasining sifati muammoli kreditlarni erta bosqichda aniqlashning hal qiluvchi sharti ekanligini alohida ta'kidlaydi [6].

Kredit risklarini kamaytirishning muhim institutsional vositalaridan biri sifatida garovni huquqiy ro'yxatdan o'tkazish tizimini ham alohida qayd etish lozim. O'zbekiston Respublikasining «Garov reestri to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, kreditor sifatida qatnashuvchi foydalanuvchi tomonidan reestrda yozuv kiritish qarzdorning roziligi bilan amalga oshiriladi va bu rozilik yozuv reestrda chiqarib tashlangunga qadar kreditorda saqlanishi shart, sudning qarzdor mol-mulkiga undiruv qaratish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori esa kreditor tomonidan qarzdorning rozilgisiz ro'yxatga kiritilishi mumkin. Bunday shaffof va huquqiy jihatdan mustahkamlangan garov reestri tizimining mavjudligi kredit risklarini nazariy jihatdan pasaytiruvchi muhim omil sifatida baholanadi, chunki u garov predmetiga bo'lgan huquqlarning bir necha kreditor o'rtasida ziddiyatga uchrashi ehtimolini kamaytiradi.

Nazariy tahlilni yanada chuqurlashtirish maqsadida ispaniyalik iqtisodchi Huerta de Sotoning qarashlarini ham eslatib o'tish joizdir: uning fikricha, foiz stavkalari darajasi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi — bir tomondan, past foiz stavkalari investitsion faollikni rag'batlantiradi, ikkinchi tomondan esa, agar ular iqtisodiyotning haqiqiy jamg'arma salohiyatiga mos kelmasa, noto'g'ri taqsimlangan investitsiyalarning shakllanishiga va keyinchalik ularning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi natijasida muammoli kreditlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin [7]. Bu qarash kredit siyosatini yuritishda foiz stavkalarini nafaqat qisqa muddatli rag'batlantirish vositasi, balki uzoq muddatli kredit sifatiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, S. Vain kredit tashkilotlarida zaxira ajratmalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni nafaqat buxgalteriya, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ko'rish lozimligini asoslaydi [7], bu esa nazariy yondashuvlarning amaliy boshqaruv qarorlariga bevosita uzviy bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Milliy dissertatsion tadqiqotlarda ham ushbu nazariy asoslarning O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirilgan talqini o'rganilgan bo'lib, xususan, tasniflash mezonlarining amaliy qo'llanilishi va ularning kredit portfeli sifatiga ta'siri chuqur tahlil qilingan [8]. Bunday tadqiqotlar nazariy modellarni milliy amaliyot bilan bog'lovchi muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli kreditlarning nazariy-uslubiy talqini ko'p qirrali bo'lib, xalqaro (Bazel, XVF) va milliy (CBU) yondashuvlarni uyg'unlashtirish, shuningdek tasniflash mezonlarini nafaqat joriy holatga, balki kelajakdagi kredit riski dinamikasiga (forward-looking tamoyilga) asoslangan holda takomillashtirish kredit portfeli sifatini xalqaro standartlar darajasida baholash va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bizningcha, ushbu nazariy asoslarni milliy amaliyotga tatbiq etishning navbatdagi bosqichi sifatida kredit sifatini nafaqat muddati o'tgan kunlar soni, balki qarzdorning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi asosida ham baholovchi integratsiyalashgan tasniflash modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards. – Basel: BIS, 2006.
2. Rose P.S. Commercial Bank Management. – New York: McGraw-Hill, 2013.
3. Gasanov O.S. Классификация проблемных кредитов: теоретический аспект // Финансы и кредит. – 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida yo'riqnoma, 2015-yil 14-iyul, 2696-son.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – Boston: Pearson, 2019.
6. Соколинская Н.Э. Управление банковскими рисками. – М.: КноРус, 2012.
7. Huerta de Soto J. Money, Bank Credit, and Economic Cycles. – Auburn: Ludwig von Mises Institute, 2006.; Вайн С. Оптимизация ресурсов современного банка. – М.: Альпина Паблишер, 2011.
8. Saidov H.R. Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish: iqt. fan. falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent: TDIU, 2024.